

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

OCHILOV ILHOM SAYITQULOVICH

AGROKLASTERLAR FAOLIYATI HISOBI VA
SAMARADORLIGI TAHLILI METODOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

IQTISODIYOT FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI

Ilmiy maslahatchi:
i.f.d., prof. B.I.Isroilov

Toshkent shahri – 2024 yil

MUNDARIJA

KIRISH	3
AGROKLASTERLAR FAOLIYATI	
I BOB. SAMARADORLIGINING NAZARIY ASOSLARI VA AGRAR SOHA RIVOJLANISHIDAGI IJTIMOYIY-IQTISODIY AHAMIYATI	15
1.1-§ O‘zbekistonda agrar sohani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bosqichlari va uning iqtisodiyot rivojlanishidagi ahamiyati.....	15
1.2-§ Klasterlar nazariyasi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari....	25
1.3-§ Agroklastlarlar tashkiliy-iqtisodiy samaradorligini baholashning xorij tajribalari tahlili.....	38
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	50
II BOB. AGROKLASTERLAR TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH ...	51
2.1-§ Agroklastlarlar tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining shakllanishi va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.....	51
2.2-§ Agroklastlarlar tashkiliy-iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlili.....	60
2.3-§ O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi va agroklastlarlari moliyaviy faoliyati samaradorligining ekonometrik tahlili.....	69
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	87
III BOB. AGROKLASTERLAR FAOLIYATI HISOBI VA TAHLILINING HOZIRGI HOLATI HAMDA UNI TAKOMILLASHTIRISH	89
3.1-§ Agroklastlarlar faoliyati hisobi va tahlilining o‘ziga xos xususiyatlari.....	89
3.2-§ Agroklastlarlar faoliyati hisobi va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish.....	97
3.3-§ Agroklastlarlar faoliyati hisobiga ta’sir etuvchi omillar tahlili va ularni takomillashtirish.....	107
Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	126
IV BOB. AGROKLASTERLAR SAMARADORLIGI TAHLILI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	129
4.1-§ Agroklastlarlar samaradorligini baholash tahlilining hozirgi holati.....	129
4.2-§ Agroklastlarlar samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi va ularni baholash metodologiyasi.....	141
4.3-§ Agroklastlarlar faoliyati va moliyaviy samaradorligini baholash uslubiyotini takomillashtirish	164
To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	176
XULOSA	179
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	186
ILOVALAR	197

KIRISH

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon aholisining yildan-yilga o'sib borishi aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash muammosini kundan-kunga dolzarblashuviga sabab bo'lmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, BMT va dunyo mamlakatlari tomonidan aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga doir qo'llanilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan mazkur yo'nalishdagi ishlarda ijobiy natijaga erishish hamon past darajada bo'lib qolmoqda. FAO tadqiqotlariga ko'ra, «yer sharida 820 milliondan ortiq kishi to'yib ovqatlanmaslikdan qiynaladi va bu ko'rsatkich 2050-yilga borib 2 milliardga yetishi mumkin. Dunyo aholisining har uchtdan bittasi to'laqonli ratsion asosida ovqatlana olmaydi va 5 yoshgacha bolalar o'limining 45 foizi to'yib ovqatlanmaslik natijasida yuz beradi va har yili 3,1 million bola shu sababli olamdan o'tadi»¹. Bu esa aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji, ayniqsa, belgilangan me'yoriy talablarga javob beradigan, gigienik jihatdan toza, tabiiy vitaminlarga boy mahsulotlar bilan ta'minlash masalasi davlatlarning eng muhim strategik vazifalaridan biri bo'lib qolayotganini ko'rsatadi.

Jahonda global raqobat va integratsiya jarayonlarining keskinlashuvi sharoitida agroklasterlar faoliyati hisobi va samaradorligi tahlili metodologiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Klasterlar faoliyatini tasniflash hamda uni tashkil etishning ilmiy-uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish, rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, agroklasterlar faoliyati tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlari samaradorligini baholash uslubini ishlab chiqish, moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish, agroklasterlar faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, agroklasterlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar samaradorligini baholash usullarini ishlab chiqish, mazkur jarayonlarga raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, «O'zbekiston

¹ Muallif hisob-kitoblari (<http://www.fao.org/sustainable-development-goals> ma'lumotlari asosida).

Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan Strategiyasi»da keltirilganidek, «qo'shilgan qiymat zanjirining rivojlanishi qishloq xo'jaligi raqobatdoshligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Mahsulotlarni daladan yakuniy iste'molchigacha yetkazib berish, ya'ni yig'ish, tashish, saqlash, qaytaishlash, qadoqlash va sertifikatlash zanjirida integratsion aloqalarning yetarli taraqqiy etmaganligi yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini cheklayotganligi»² qayd etilgan. Natijada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saralash va saqlash xizmatlari talab darajasida emasligi hosilning qariyb 30 foizi isrof bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Yetishtirilayotgan sabzavot mahsulotlarining bor-yo'g'i 3-4 foizi, mevaning 11 foizi eksport qilinmoqda. Agrar tarmoqni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsada, global, yashil va raqamlashayotgan iqtisodiyotlar sharoitida agrar sohani tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari hamda ular samaradorligini takomillashtirish istiqbollari tadqiq qilinmagan, jumladan, bu borada innovasion jarayonlarni boshqarish nazariyasi va amaliyoti yetarli darajada o'rganilmaganligi, yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqni shakllantirish va yuqori iqtisodiy samaradorlikga erishish, sohaga davlat xususiy-sheriklik mexanizmlarini joriy etish, ya'ni agrar tarmoqni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son «Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2024-yil 1-maydagi PF-71-son «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni, 2017-yil 19-maydagi PQ-2978-son «Buxoro viloyatida zamonaviy paxtachilik-to'qimachilik klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish

² <https://lex.uz/docs/4567334> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 23.10.2019 yildagi PF-5853-son.

bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son «2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi 207-son «Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati camaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanish dasturlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. Agrar tarmoqni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va agroklastlar faoliyati hisobi va samaradorligi tahlilining nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar jahonning ilg'or ilmiy-tadqiqot markazlarida, jumladan, The Centre for the Analysis of Investment Risk (CAIR), The University of Oxford, Economist Intelligence Unit (EIU) (Buyuk Britaniya), Food and Agriculture Organization of the United Nations, Brazilian Association of Vegetable Oil Producers, Brazilian Agricultural Research Corporation (Braziliya), International Centre for Tropical Agriculture, Canadian International Development Agency, The Fraser Institute (Kanada), Santa Cruz Agricultural Development Foundation (Boliviya), Good Agricultural Practices, Global Partnership for Good Agricultural

³Mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi The International Agricultural Trade Research Consortium (IATRC). The Impact of Pillar II Funding Validation from a Modelling and Evaluation Perspective, Schroeder, Gocht, and Britz 2015, and Economic Research Service (ERS), Agricultural taxation under structural adjustment [2008], Current fiscal issues fiscal monitor: policies for the recovery (2019), Fiscal Monitor: Fiscal Policy from Pandemic to War (2020) hamda <http://www.fao.org>, www.sardc.net; <https://www.weforum.org>; www.harvard.edu; <https://www.piie.com>; <https://www.uchicago.edu>; <http://unctad.org>; <https://www.bankofamerica.com>; <http://www.weforum.org>; <http://www.beri.com>; <https://www.controlrisks.com>; <http://www.eiu.com>; <https://www.euromoney.com>; <http://www.institutionalinvestor.com>; <https://www.montpellier-bs.com>; <https://www.prsgroup.com>; <https://www.moodys.com>; <https://www.standardandpoors.com>; <https://sustainabledevelopment.un.org>; <https://www.atkearney.com>; www.ox.ac.uk; <https://raexpert.ru>; <https://www.tsue.uz>; <https://imrs.uz>; <https://www.stat.uz>; <https://www.tdau.uz> интернет манбалар маълумотлари asosida tayyorlangan.

Practices, Indian Council of Agricultural Research (Indiya), Inter-American Institute for Cooperation on Agriculture, Agricultural Quality and Safety Institute of the province of Mendoza, International Trade Centre, Pennsylvania State University, University of Texas at Austin (AQSh), National Institute of Agricultural Technology (Argentina), United States Department of Agriculture, World Bank Institute, Institute for Strategy and Competitiveness at Harvard Business School, Agricultural and Food Engineering Technologies Service of FAO, United States Agency for International Development's (USAID), The University of Chicago, Regional Economic Development Institute (REDI), Bank of America World Information Services, Business Environment Risk Intelligence (BERI), Moody's Investor Service, Standard & Poor's Ratings Group (S&P), The United Nations Commission on Sustainable Development (UN CSD), Harvard University, Euromoney Institutional Investor (PLC), United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD) (Shveytsariya), Montpellier Business School (Frantsiya), International Country Risk Guide (ICRG) (Avstraliya), Interfaculty Centre for Agrarian History, Rural History at the University of Leuven (Belgiya), Netherlands Agricultural Historical Institute (Niderlandiya), Royal Netherlands Academy of Arts and Sciences (Niderlandiya), Xalqaro agrar ta'lim akademiyasi (Ekaterinburg), Bryansk davlat agrar universiteti (Bryansk), Krakov iqtisodiyot universiteti (Polsha), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) huzuridagi ilmiy-tadqiqot instituti, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, K.A.Timiryazov nomidagi Rossiya davlat agrar universiteti, N.I.Vavilov nomidagi Saratov davlat agrar universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati moliya universiteti, Ekspert RA (Rossiya), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent davlat agrar universitetlari tomonidan agroklastlar faoliyati hisobi va samaradorligi tahlili metodologiyasini takomillashtirish yo'nalishida tadqiqotlar amalga oshirilmogda.

Jahonda agroklastlar faoliyati hisobi va samaradorligi tahlili metodologiyasini takomillashtirish yuzasidan bir qator ilmiy natijalarga erishilgan, jumladan, 2014-2023 yillarda Meksikada qashshoqlik darajasini 5 foizga qisqartirishga erishilgan

(Statistika va geografiya milliy instituti, Meksika); Argentina va Braziliyada kambag'allikning o'sish darajasi to'xtatilishi asoslangan (Statistika va aholini ro'yxatga olish milliy instituti, Argentina, Braziliya geografiya va statistika instituti, Braziliya); davlat xarajatlari doimiyliigi va o'zgaruvchanligi tadbirkorlarning bozordagi faolligi va iqtisodiy o'sishga ta'siri asoslangan (Economic Research Service, AQSh); qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish mexanizmi; qarzdorlikni garov va kafolat tizimi asosida kechiktirishga ruxsat etish mexanizmi ishlab chiqilgan (Davlat boshqaruvi akademiyasi va Fiskal institut, O'zbekiston). Shuningdek, Yevropada agrobiznes klasterlari (Niderlandiya), agroklasterlarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari (Belgiya), innovatsion klasterlar faoliyatini tashkil etishning iqtisodiy mexanizmlari (Ukraina), agrosanoat tarmog'idagi klasterlar uyushmasining tashqiliy-iqtisodiy modeli (Belorusiya), agrobiznes klasterini shakllantirish va raqobatbardosh qiymat zanjirini rivojlantirish (Mali), agroklasterlar rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy raqobatbardoshlik (Italiya), agroklasterlarni moliyalashtirish masalalari (Rossiya), agroklasterlarning biznes tarmog'i (Gresiya), agroklasterlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tasniflash xususiyatlar (Indoneziya), agroklasterlarni boshqarishni takomillashtirish, funksional qiyosiy yondashuv (Ukraina), innovatsion klasterlarda qishloq xo'jaligi qiymat zanjirini yaratish (AQSh), Yevropa mamlakatlari qishloq xo'jaligi klasterlarining tashkiliy-iqtisodiy tahlili (Germaniya) bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ushbu tadqiqotlarda bozor konyunkturasi o'zgarishlari asosida kafolatlangan (guaranteed "support price") va eng kam me'yoriy narxlar (minimum legal price) belgilashni moliyalashtirish (AQSh), qishloq xo'jaligi sohasi sub'ektlari daromadlari va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda CAPRI-RD modelidan foylanish (Germaniya); bioyoqilg'idan foydalanish uchun davlat subsidiyasi imtiyozlarini joriy etish samaradorligi (Evropa Ittifoqi), to'lov qobiliyati va qarz olish imkoniyati (Euromoney, London); ekologik muammolarni hal qilish, jamg'arish normasi va iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik usullar yordamida aniqlash yo'llari ishlab chiqilgan (International Monetary Fund).

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida

agroklasterni tashkil etish, ularni moliyalashtirish mexanizmlari, tashkiliy-huquqiy faoliyatini tahlil qilish kabi masalalari ko'plab iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning ilmiy tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan. Jumladan, klassik iqtisodiyot namoyondalari M.Porter, A.Paltariyxin, S.I.Rekord, S.F.Pyatinkin, T.P.Biykova va boshqalarning asarlarida klasterlarning moliya resurslari va mexanizmlari, jumladan klasterlashtirishning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslari keng tadqiq etilgan⁴.

Chet el iqtisodchi olimlaridan A.V.Golubev, L.V.Shukina, E.V.Dorjjeva, I.V.Kulaga, A.C.Boytsov, A.I.Kostyaev, V.A.Bondarenko, A.A.Biykova, Yu.L.Vladimirov, F.S.Gubaydullina, A.Koloshin, K.Razgulyaev, A.E.Romanov, V.P.Arashukov, V.Tarassenko, E.Yakovlevalar klasterlar faoliyati turlari va ularni moliyalashtirish manbalari, klasterlarning tasnifi va rivojlanishining ilmiy-amaliy asoslari, klasterlar faoliyatini moliyaviy-iqtisodiy baholash uslubiyoti va usullarini baholash bilan bog'liq yo'nalishlarda tadqiqot ishlari olib borganlar⁵.

Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish sohalarni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va tashkiliy-iqtisodiy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlardan L.I.Abalkin, I.Ansoff, V.P.Barancheev, I.K.Belyaevskiy, J.Brayt, V.P.Krasovskiy, K.R.Makkonel, S.L.Bryu, M.Porter, I.S.Sandu, B.Santo, A.Smit, R.Taker, B.Tviss, R.A.Fatxudinov, V.F.Fedorenko, M.Xuchek, F.K.Shakirov, Y.Shumpeterlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlarimizdan A.T.Kenjabaev, A.O.Sultonov, M.K.Tursunov, Sh.Xasanov, M.Q.Pardaev, J.I.Isroilov, B.I.Isroilov, U.P.Umurzakov, Q.A.Choriev, Ch.Murodov, N.S.Xushmatov, S.S.G'ulomov, Q.D.Mirzaev, T.X.Farmonov, B.B.Berkinov, R.X.Ergashev, A.M.Qodirov, B.F.Sultonov, S.N.Xamraeva va boshqalarning ilmiy ishlarida o'rganilgan⁶.

⁴Porter M. Clusters and the New Economics of Competition. HarvardBusinessReview. <http://hbr.org/product/clusters-and-the-new-economics-of-competition/an/98609-PDF-ENG> Портер М. Конкуренция: обновленное и расширенное издание; пер. с англ. М.: ООО «И.Д.Вильямс», 2010 - 592 с., Палтарыхин А. Кластерный подход к развитию регионального АПК /Полтарыхин А. //Человек и труд. 2010. - № 6. - с. 67., Пятинкин С.Ф., Быкова Т.П. Развитие кластеров: сущность, актуальные подходы, зарубежный опыт. Минск: Тесей, 2008. - 72 с., Рекорд С.И. Развитие промышленно-инновационных кластеров в Европе: эволюция и современная дискуссия. СПб.: Из-во СПбГУЭФ, 2010. -109 с.

⁵Быкова А.А. Проблематика формирования инновационных кластеров / Быкова А.А.// Инновации. 2006. - № 2. - с. 38-43., Глотко А.В. Формирование и развитие кластера садоводства в региональном АПК: автореф. дисс. д-р экон. наук: 08.00.05 / Глотко А.В. Новосибирск, 2010. - 48 с

⁶Кенжабаев А.Т., Султонов А.О. Агрокластеризация – важнейший инструмент экономии водных ресурсов

Ammo izlanishlarimiz qishloq xo‘jaligida agroklastlar faoliyatini tashkil etish, uning yangi turlarini shakllantirish va rivojlantirish, agroklastlar faoliyatining tarmoqlar va mahsulotlarning iqtisodiyotdagi tutgan o‘rni, mamlakat iqtisodiyotiga klasterlarni yanada keng jalb qilish va rag‘batlantirish mexanizmlarini, klasterlarning investitsiya imkoniyatlarini oshirish va ular faoliyati samaradorligini takomillashtirish bilan bog‘liq muammolar etarlicha tadqiq etilmaganligini ko‘rsatmoqda. Bu o‘z navbatida ushbu dissertatsiya ishi mavzusini tanlash, dolzarbligi va zarurligini asoslashga xizmat qildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi agroklastlar faoliyati hisobi va samaradorligi tahlili metodologiyasini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

klasterlar nazariyasini tadqiq etish asosida klasterlar faoliyatini tasniflash hamda uni tashkil etish va ilmiy-uslubiy jihatdan takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

agroklastlar faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini tahlil qilish va uni takomillashtirish to‘g‘risida takliflar ishlab chiqish;

agroklastlar faoliyati tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlari samaradorligini baholash to‘g‘risidagi qarashlarini tahlil qilish;

agroklastlar faoliyati tashkiliy-iqtisodiy holatini baholash ko‘rsatkichlari tizimi ishlab chiqish;

agroklastlar faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

agroklastlar faoliyati moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimini o‘rganish hamda ularni tahlil qilish uslubiyotini takomillashtirish bo‘yicha

taklif va tavsiyalar tayyorlash;

agroklasterlar faoliyati samaradorligini kompleks ko'rsatkich asosida baholash uslubiyotini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan bog'liq agroklasterlar faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti agroklasterlar faoliyati hisobi va samaradorligi tahlili metodologiyasini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimidir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tizimli yondashuv, monografik kuzatish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, taqqoslama tahlil, ekspert baholash, ekonometrik modellashtirish, prognozlash va boshqa iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "klaster" tushunchasining iqtisodiy mazmuni ma'lum bir hududda joylashgan, bozor qonuniyatlari asosida hamkorlik qiladigan va bir-biriga o'zaro ta'sir o'tkazadigan, yagona qiymat zanjirida mahsulot yaratadigan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektlar guruhi tuzilishiga ko'ra uchta asosiy darajani qamrab olishi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

uslubiy yondashuvga ko'ra "agroklasterlarning moliyaviy va tashkiliy-iqtisodiy samaradorligini baholash" tushunchasining iqtisodiy mazmuni bu boradagi mavjud metodologiyaga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy holati, moliyaviy natija va resurslar samaradorligi hamda resurslardan foydalanish, raqobatbardoshlik, bozordagi ulush, hamkorlikni mustahkamlash darajasi ko'rsatkichlarini kiritish orqali takomillashtirilgan;

xususiy kapital tarkibida maqsadli tushumlar hisobini takomillashtirish maqsadida 8821-"Texnika xarid qilishga subsidiyalar", 8822-"Suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilishga subsidiyalar", 8823-"Yerdan foydalanish va o'zlashtirishga subsidiyalar" ishchi schyotlarini joriy etish orqali agroklasterlarda davlat byudjetidan ajratiladigan subsidiyalar ustidan nazorat o'rnatish va moliyaviy hisobot axborotlarini to'g'ri shakllantirish asoslangan;

agroklasterlarda yuqori talabga ega qo'shimcha sanoat mahsulotlarini ishlab

chiqarish jarayoni hisobini yuritishda 2311-“Konus tayyorlash xarajatlari”, 2312-“Qop tayyorlash xarajatlari”, 2313-“Sellofan paket ishlab chiqarish xarajatlari” ishchi schyotlarini joriy etish orqali agroklastarlarda yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobining shaffofligini va mahsulot tannarxining to‘g‘ri aniqlanishini ta‘minlash taklifi asoslangan;

O‘zbekistonda paxta-to‘qimachilik klasterlari suv tejovchi texnologiyalarga investitsiya jalb qilish hisobiga yalpi hosildorligi va samaradorlikni oshirish bo‘yicha 2030 yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari integrallangan o‘zgaruvchan o‘rtacha qiymatlarning avtokorrelyatsiya modeli asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

klaster tarkibiga kiruvchi korxonalarining tayyor mahsulotga qo‘shgan hissasiga qarab mos ravishda taqsimlash taklif etilgan;

agroklastarlar tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida klasterga a‘zolik hamda mahsulot etkazib berish bitimlari tuzishda sub‘ektlar erkinligi va mustaqilligini ta‘minlash tartibini erkin tanlash huquqini qonun me‘yorlari bilan belgilab qo‘yish asoslab berilgan;

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish darajasiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar (agroklastarlar er maydoni, agroklastarlar soni va investitsiyalar hajmi) ta‘siri o‘zgarishi natijasida erishiladigan agroklastar mahsulotlari miqdorining o‘sishi ekonometrik tahlil (ARDL modeli) asosida ishlab chiqilgan;

agroklastar faoliyati samaradorligini baholashda ko‘rsatkichlar tizimidan (11 ta ko‘rsatkich) foydalanish tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi taniqli xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi-olimlarining agroklastarlar tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlari samaradorligi tahlilini takomillashtirishga doir muammolar hamda ular echimi xususidagi ilmiy-nazariy qarashlari, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va umumlashtirish, shuningdek, nazariy xulosalar xalqaro moliya institutlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va “O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” Uyushmasi amaliy ma‘lumotlaridan

foydalanib asoslanganligi hamda ushbu ishlanmalar amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishda ishlab chiqilgan xulosa va takliflardan agroklasterning tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning uslubiy asoslarini kengaytirish, qonun hujjatlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati agroklasterning tashkiliy-iqtisodiy, moliyaviy muammolarini hal etishga qaratilgan dastur va "Yo'l xaritalari" ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash va ular malakasini oshirish, agrosanoat kompleksidagi davlat organlari va tashkilotlari mutaxassislari, shuningdek, oliy va kasb-hunar ta'lim muassasalarida "Operasion ishlab chiqarishni rejalashtirish", "Investitsiya loyihalari va risklarini boshqarish", "Boshqaruv qarorlarini iqtisodiy asoslash" kabi yo'nalishlar bo'yicha talabalarni o'qitish, klaster yondashuvi asosida tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish muammolari bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilarning malakasini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Agroklasterning faoliyati hisobi va samaradorligi tahlili metodologiyasini takomillashtirishga doir ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "klaster" tushunchasining iqtisodiy mazmunini ma'lum bir hududda joylashgan, bozor qonuniyatlari asosida hamkorlik qiladigan va bir-biriga o'zaro ta'sir o'tkazadigan, yagona qiymat zanjirida mahsulot yaratadigan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektlar guruhi tuzilishiga ko'ra uchta asosiy darajani qamrab olishi nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari uchun tavsiya etilgan "Moliya asoslari" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 29-fevraldagi 45-son buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda yagona qiymat zanjirida mahsulot yaratadigan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektlar guruhi tuzilishiga ko'ra uchta asosiy darajani qamrab olishi

nuqtai nazaridan takomillashtirilgan “klaster” tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

uslubiy yondashuvga ko‘ra “agroklasterning moliyaviy va tashkiliy-iqtisodiy samaradorligini baholash” tushunchasining iqtisodiy mazmunini bu boradagi mavjud metodologiyaga xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy holati, moliyaviy natija va resurslar samaradorligi hamda resurslardan foydalanish, raqobatbardoshlik, bozordagi ulush, hamkorlikni mustahkamlash darajasi ko‘rsatkichlarini kiritish orqali takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari uchun tavsiya etilgan “Moliya asoslari” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 29-fevraldagi 45-son buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy holati, moliyaviy natija va resurslar samaradorligi hamda resurslardan foydalanish, raqobatbardoshlik, bozordagi ulush, hamkorlikni mustahkamlash darajasi ko‘rsatkichlarini kiritish orqali takomillashtirilgan “agroklasterning moliyaviy va tashkiliy-iqtisodiy samaradorligini baholash” tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

xususiy kapital tarkibida maqsadli tushumlar hisobini takomillashtirish maqsadida 8821-“Texnika xarid qilishga subsidiyalar”, 8822-“Suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilishga subsidiyalar”, 8823-“Yerdan foydalanish va o‘zlashtirishga subsidiyalar” ishchi schyotlarini joriy etish taklifi to‘g‘risidagi taklifi “O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” Uyushmasi faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” Uyushmasining 2023-yil 24-maydagi 02/22-378-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida agroklastarlarda davlat byudjetidan ajratiladigan subsidiyalar ustidan samarali nazoratning o‘rnatish va moliyaviy hisobot axborotlarini to‘g‘ri shakllantirish imkoni yaratilgan;

yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobini takomillashtirish maqsadida 2311-“Konus tayyorlash xarajatlari”, 2312-“Qop tayyorlash xarajatlari”, 2313-“Sellofan paket ishlab chiqarish xarajatlari” ishchi schyotlarini joriy etish taklifi

“O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” Uyushmasi faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” Uyushmasining 2023-yil 24-maydagi 02/22-378-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida agroklastarlarda yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobining shaffofligini ta’minlash va mahsulot tannarxining to‘g‘ri aniqlash imkoni yaratilgan;

O‘zbekistonda paxta-to‘qimachilik klasterlari suv tejavchi texnologiyalarga investitsiya jalb qilish hisobiga yalpi hosildorligi va samaradorlikni oshirish bo‘yicha integrallangan o‘zgaruvchan o‘rtacha qiymatlarning avtokorrelyatsiya modeli asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan “O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” Uyushmasi faoliyatida foydalanilgan (“O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” Uyushmasining 2023-yil 24-maydagi 02/22-378-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida agroklastarlar va ular tarkibidagi sub’ektlar moliyaviy-iqtisodiy faoliyati barqarorligini ta’minlashga xizmat qilishi hamda klasterlar faoliyati samaradorligini o‘rtacha 7 foizgacha oshirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 8 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda, ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilib ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarning e’lon qilinganligi. Tadqiqotning asosiy mazmuni bo‘yicha jami 47 ta, jumladan, Scopus, Web of Science va xalqaro indekslangan ilmiy nashrlarda 21 ta xorijiy maqolalar, 3 ta monografiya (shundan bitta yakka mualliflikda), 12 ta OAK ro‘yxatidagi jurnallarda maqolalar hamda 11 ta mahalliy va xalqaro konferensiyada tezislar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 202 betni tashkil etadi.

Dissertatsiya ishi “Zebo prints” nashriyoti tomonidan tahrir qilindi.

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 1390.

Bosishga ruxsat etildi 20.09.2024 yil. Buyurtma № 25/09. Bichimi 60x84 1/8.

Bosma tabogi 12,7. “Times New Roman” garniturasida. “Zebo prints” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Nashriyot tasdiqnoma raqami № 1390. Toshkent sh.,

Yashnobod t. 22-harbiy shaxarcha.